

## YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR BO'YICHA IMTIYOZLAR

T/r	Yakka tartibdagi tadbirkorlar toyifasi	Imtiyoz turi	Imtiyoz qo'llanishi uchun asos
<b>I. Qat'iy belgilangan miqdordagi soliq bo'yicha</b>			
1.	Yangi davlat ro'yxatidan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor	Yakka tartibdagi tadbirkor qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lashni u tadbirkorlik subyektini sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan yoki yakka tartibdagi tadbirkor yoxud oilaviy tadbirkorlik subyektini bilan mehnat shartnomasi tuzilgan oydan keyingi oydan e'tiboran amalga oshiradi.	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 392-moddasi
2.	"Hunarmand" uyushmasining a'zosi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkor	"Hunarmand" uyushmasining a'zolari hunarmandchilik faoliyati mahsulotlarini (tovar, ish, xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotishda qat'iy belgilangan soliqdan ozod etiladi.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son Farmoni
3.	I va II guruh nogironi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkor	Faoliyat ko'rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat'iy nazar I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida to'laydi.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son Farmoni
4.	Ayrim hududlarda faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkor	Qoraqalpog'iston Respublikasining <b>Mo'ynoq tumanida</b> davlat ro'yxatidan o'tgan va faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2027-yilning 1-yanvariga qadar qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni to'lashdan ozod etilgan.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-fevraldagi PQ-2803-son qarori
5.	Ayrim hududlarda faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkor	Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex tumanlari, Nurota tumanidagi Deqibaland, Sentob, Temirkovuk, Qizilcha, Gum va Choya aholi punktlari hamda Zarafshon shahri hududida ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan miqdordagi soliq to'lashdan 2028-yilning 1-yanvariga qadar ozod etilgan.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-sentyabrdagi PQ-3301-son qarori
6.	Maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etgan yakka tartibdagi tadbirkor	Maktabgacha ta'lim nodavlat muassasasini tashkil etgan yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshira boshlaganidan keyin 10 yil mobaynida barcha turdagi soliqlar va majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilinadi.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-son qarori

T/r	Yakka tartibdagi tadbirkorlar toyifasi	Imtiyoz turi	Imtiyoz qo'llanishi uchun asos
7.	Ayrim hududlarda faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkor	2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar: 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan summalarini to'lashdan ozod qilinadi.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son Farmoni
8.	Ayrim hududlarda faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkor	Farg'ona viloyatining So'x tumani, Rishton tumanining Cho'ng'ara mahallasi, shuningdek Farg'ona tumanining Shohimardon, Yordon mahallalari va Hosilot mahallasining Toshtepa - 2 ko'chasida faoliyatini amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar uchun qat'iy belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i har chorakda yigirma besh ming so'm miqdorida to'lanadi.	Soliq kodeksining 480-1-moddasi
<b>II. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha</b>			
9.	Milliy katalog va "Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reestri"ga kiritilgan hunarmandlar	2023-yil 1-iyundan 2025-yil 1-yanvarga qadar Milliy katalog va "Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reestri"ga kiritilgan hunarmandlar uchun kalendar yili davomida hunarmandchilik mahsulotlarini ( <i>ishlar, xizmatlar</i> ) sotishdan tushgan tushumi 100 mln.so'mdan oshgan, biroq 1 mlrd.so'mdan ko'p bo'lmagan miqdori bo'yicha aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son Farmoni
10.	Ayrim hududlarda faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkor	2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar: 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari ( <i>yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno</i> ) aylanmadan olinadigan soliqni 1 foiz; 4-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari ( <i>yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno</i> ) uchun aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy soliq stavkasi 3 foiz etib belgilandi.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda PF-287-son Farmoni
<b>III. Ijtimoiy soliq bo'yicha</b>			

T/r	Yakka tartibdagi tadbirkorlar toyifasi	Imtiyoz turi	Imtiyoz qo'llanishi uchun asos
11.	Yangi davlat ro'yxatidan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor	Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar ( <i>shuningdek, oilaviy tadbirkorlik subyekti azolari</i> ) tomonidan ijtimoiy soliqni to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan etiboran amalga oshiriladi.	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 408-moddasi
12.	Nafaqaxo'r, I va II guruh nogironligi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkor	Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ijtimoiy soliq miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 408-moddasi
13.	"Hunarmand" uyushmasining a'zosi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkor	Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati subyektlari bo'lgan "Hunarmand" uyushmasining a'zolari ijtimoiy soliq to'lashdan ozod etiladi.	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 408-moddasi
14.	Ayrim hududlarda faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkor	Farg'ona viloyatining So'x tumani, Rishton tumanining Cho'ng'ara mahallasi, shuningdek Farg'ona tumanining Shohimardon, Yordon mahallalari va Hosilot mahallasining Toshtepa - 2 ko'chasida faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun — yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida.	Soliq kodeksining 480-2-moddasi